

QONUNCHILIGIMIZDA SHAXSLARNI QO‘LGA OLISH VAQTIDAGI HUQUQLARI

O‘rmanova Muxlisa Dilshodjon qizi

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Yurisprudensiya 4-108-guruh talabasi

Telefon: +998(97) 021-04-28

muxlisaormanova13@gmail.com

Anontatsiya: bu maqolada “Miranda qoidasi” ning qonunchiligimizda tutgan o‘rni, uning kelib chiqish tarixi va rivojlanish bosqichlari haqida ma’lumotlar va albatta qonunchiligimizda Miranda qoidasining qo‘llanilish shakllari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Miranda qoidasi, xalqaro huquq tizimi, tergov organlari, jinoyat, gumonlanuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, konstitutsiya, Jinoyat-protsessual kodesksi.

Qonunchiligimizda ko‘plab o‘zgarishlar bo‘layotgan bir paytda tergov yoki qo‘lga olingan shaxslar huquqlari ham yildan – yilga xalqaro huquq umum e’tirof etgan standartlarga mos ravishda rivojlanib bormoqda. Buni biz tergov va surishtiruv organlarining birinchi harakatlari davrida gumonlanuvchi bo‘lib qo‘lga olingan shaxslarga bo‘lgan muomala va jarayonda ko‘rishimiz mumkin. Vaholanki, bo‘lgan jinoyat ishini ochish va bartaraf qilish gumonlanuvchini emas balki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hodimlarining vazifasiga kiradi. Lekin o‘tgan yillar shuni ko‘rsatadiki, tergov organlari faqat tezroq ishni yopish maqsadida gumonlanuvchini topib, uning bo‘yniga jinoyatni qo‘yib ishni sudga oshirishni ko‘zlagan. Bu holat ayniqsa sobiq SSSR davrida juda avj olgan. Insonlar bilishgan, bir inson bir jinoyatda gumonlanuvchi tariqasida jalb etildimi bo‘ldi, tamom, u kishi hech qachon oqlanmaydi. Shuning uchun hattoki mustaqillikka erishganimizdan keyin ancha vaqt o‘tsa, hali ham ba’zi o‘sha qiyin vaziyatlarga tushib qolib, hech kimdan najot topolmagan bizning sodda xalqimiz tergov va surishtiruv organlarini hali hamon eski paytlardagidek ish olib boradi deb o‘ylashadi. Hali ham xalqimiz orasida “ha prokuror yoki sudyaga pul bersang yo kattaroq tanishing bo‘lsa, marra seniki unda aybing yo‘q bo‘lsa ham qamaydi” degan so‘zlar yurgani kishini dilini xira qiladi. Chunki hozirda bunday siyosat – u tergov jarayonlari hattoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati ham tubdan o‘zgargan. Buning yaqqol misoli tariqasida, Miranda qoidasini aytsak bo‘ladi. Bu bu qoidaning ishga kirib milliy qonunchiligimizda o‘z o‘rnini topganini Konstitutsiya darajasida mustahkamlanib qo‘yilganidan ham ko‘rsak bo‘ladi. O‘zi Miranda qoidasi nima? U qanday ishlaydi yok bizga qanday huquq beradi? “Miranda qoidasi” bu so‘z asli ingliz tilidan olingan bo‘lib, vakolatli davlat organi xodimlari tomonidan ushlanayotgan shaxsga uning sukut saqlash huquqini va

shaxsga u tomonidan aytilgan har bir soʻz yoki xatti – harakat unga qarshi ishlatilishi mumkinligi haqida ogohlantirish maʼnosini bildiradi¹. Bu atamaning tarixiga yaʼni qanday paydo boʻlganiga nazar tashlaydigan boʻlsak, bu atama AQShda paydo boʻlgan. Bu atamaning kelib chiqishi AQShning Arizona shtati politsiyasi tomonidan qoʻlga olingan Ernest Arturo Miranda bilan bogʻliq. U hibsga olingan paytda uning huquqlari tushuntirilmagan va u oʻzi bilmagan holda aybiga iqrorigini bildirgan. Keyin esa uning advokati apellatsiya shikoyati kiritib, uning huquqlari tushuntirilmaganini sudga maʼlum qilgan. Shundan soʻng sud buni haqiqat ekanligini aniqlab, Ernest Arturo Mirandaga oqlov hukmi chiqargan. Shundan soʻng, AQSh amaliyotida bu “Miranda huquqlari” xalqaro huquqda esa “Miranda qoidasi” deb qonunchilik tizimiga kirgan.

Miranda qoidasi bizning qonunchiligimizda tutgan oʻrni benihoya kattadir. Chunki bu huquq orqali tergov va surishtiruv organlarining vazifalari yanada oshdi. Miranda qoidasi, Oʻzbekiston qonunchiligiga 2009 yilda kirib kelgan². Maʼlumki, yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning 28 – moddasiga Miranda qoidasi kiritilgani ham bu qoida ishlayotganidan darak beradi. Mazkur moddaning 3-qismiga koʻra: “Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi oʻzining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin”³ deb yozib qoʻyilgan. Endi gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi shaxslarga istalgan paytda sukut saqlashi huquqi konstitutsiya darajasida mustahkamlandi. Endi jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxslar sukut saqlab oʻz huquqlaridan foyalanadi, huquqni muhofaza qiluvchi organ hodimlari esa jinoyatni ishini ochish uchun ayblanayotgan shaxs sukut saqlash huquqidan mahrum qila olishmaydi. Bu qoida davlat organi xodimlarini masʼuliyat darajalarini yanada oshishiga, inson huquqlarini esa xalqaro huquq normalarga muvofiq himoya qilinishiga olib keldi. Bu qoida normalari hattoki Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 24 – moddasida ham keltirib oʻtilgan. Unga koʻra:

“ Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi himoyalani sh huquqiga ega.

Himoyalani sh huquqi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud zimmasiga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga unga berilgan huquqlarni tushuntirib berish hamda u oʻziga qoʻyilgan ayblovdan himoyalani sh uchun qonunda nazarda tutilgan barcha vosita va usullardan foydalanishda haqiqiy imkoniyatga ega boʻlishiga qaratilgan chora – tadbirlar koʻrish majburiyati bilan taʼminlanadi”⁴.

Agarda shaxs oʻz aybinin tan olsa-yu lekin bu unga qarshi yagona dalil boʻlsa, u aybdor deb topilmaydi va jazoga tortilmaydi. Bu qoida ham konstitutsiyamizning 28 – moddasida mustahkamlanib qoʻyilgan. Endi avvalgi qoida va qonun tizimi yoʻq. Shaxs

¹ m.wikipedia.org

² kun.uz

³ Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – “Yuridik adabiyotlar publish” Toshkent. 2023

⁴ Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi – 01.04.1995

o‘z aybini tan olgani uni aybdorligini isbotlamaydi. Balki u haqiqiy aybdor bo‘lmasa-chi, balki u aynan boshqa jinoyatni yashirish maqsadida bu jinoyatni tan olgandir yoki kimdir nimadir evaziga bu jinoyatni bo‘yniga olayotgandir. Shuning uchun bu norma konstitutsiya darajasida mustahkamlandi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Miranda qoidasi hozirda juda ko‘p davlatlar milliy qonunchiligida o‘z o‘rnini topib bormoqda. Shu bilan birga inson huquqlari ham mustahkamlanib bormoqda. Ernest Arturo Miranda kabi hech kim huquqlari tushuntirilmay qolinmaydi. Hech kim u hali ruhiy tomondan o‘ziga kelmasdan turib, tazyiqqa olinmaydi. Agar shaxs hali tergov jarayoniga tayyor bo‘lmasa, u sukut saqlab turishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – “Yuridik adabiyotlar publish” Toshkent. 2023
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi – 01.04.1995
3. m.wikipedia.org sayti.
4. kun.uz sayti.